

O`zDJTU talabasi

Mahmudova Mohichehra

O`qituvchi: Nizomova I. R.

“21 ASRNING VIRTUAL OLAMIGA SAYOHAT”

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada “Internet” tushunchasi, uning vujudga kelishi tarixi, tahliliy va statistik ta`siri, vatanimizga va ta`lim tizimiga kirib kelishi haqida ma`lumotlar berilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan raqamlilashtirish siyosati, o`z navbatida ta`lim sohasini ham chetlab o`tmagani kabi bu jarayonni asosini tashkil etuvchi Internet haqida keng bilimga ega bo`lish jamiyatimizning har bir a`zosi va talabalarning burchi, hamda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga loyiqdir.

Kalit so`zlar: *Tarmoqlar, Internet, Global aloqalar, ta`lim, kompyuterlar, ma`lumotlar bazalari, talabalar, onlayn darslar va universitetlar.*

“ARPANET” DAN “WWW” GACHA YOXUD MAXFIY TARMOQ TARIXI

Hech shubha yo`qki bugungi dunyoning eng yirik ixtirolaridan biri xisoblangan Internet hayotimizni ajralmas qismidir. Internetni har bir inson o`zicha ifodalaydi, kimdir instagramdagi “like”lar deb tushunsa, kim uchundir u oxiri yo`q kutubxonadir. Ammo aslida Internet umuman nima? Uni kim, qanday yaratgan? Global tarmoqni nazorat qilish mumkinmi? Dastlabki savolga qaytsak, Internet o`zi lotincha so`zdan olingan bo`lib - *Inter* - “aro”, *Net* - “tarmoq” ma`nolarini anglatadi. Texnik jihatdan esa, Internet bu **standartlashtirilgan aloqa protokollari** asosida ko`plab **kompyuterlar va tizimlar** o`rtasida **markazlashtirilgan tarmoq** vazifasini bajaradi, ularni bir-biriga ulashda, aloqa o`rnatib ma`lumot almashishini asosini tashkil etadi. XX asrda Amerika Qo`shma Shtatlari olimlar yordamida urush davrida milliy-harbiy ma`lumotlarni xavfsiz va sifatli usulda harbiy bazalararo aloqa o`rnatgan holda almashish uchun Internet uchun poydevor hisoblangan tarmoqlar yaratishga kirishdi. 1960-yillarga kelib esa bu sohada ancha katta ishlar amalga oshirildi. Massachusetts Texnologiyalar Instituti olimlari ishtirokida turli xil loyihalar qilindi, natijada eng dastlabki internet - “ARPANET” vujudga keldi. Keyinchalik bu loyiha ommaga ham taqdim etildi, natijada tasavvur qilib bo`lmas

darajada katta raqamli ombor vujudga keldi va bu ombor hozir ham kattalashib bormoqda. Bu esa o`z navbatida butun boshli tarmoqni nazoratini umuman imkonsiz xolatga keltirmoqda. Ko`pchilik foydalanadigan Internetdagi vositalarga oid bo`lgan ba`zi faktlar ham ancha-muncha, masalan, “@” belgisi Germaniyada - maymuncha, Gretsiyada - o`rdak, vatanimizda esa oddiygina qilib kuchukcha deb ataladi. Internet umuman olganda insonlarni o`ziga shunchalik jalb qilib oldiki, hatto, Xitoy mamlakatida “Internet kasali”ga uchragan odamlar uchun maxsus lager tashkil etilgan ekan. Lagerdagilarning asosiy vazifasi Internetsiz hayotni qayta o`rganish va ko`nikish bo`ladi.

INTERNET HAYOTIMIZNI QANDAY O`ZGARTIRDI?

Internet ta`sirida insoniyat hayoti shunchalik o`zgarib kettiki, hatto, endi kelajakni busiz tasavvur qilishni iloji bo`lmay qoldi. Quyidagilar esa bunga yorqin misoldir:

- Dastlab, internetning yaratilishiga xizmat qilgan g`oya, ya`ni, masofadan qat`i nazar insonlar o`rtasida yaqinlikni vujudga keltirishni aytsak. Darhaqiqat, hozirgi internet bu vazifani ortig`i bilan uddalayabti desak xato qilmagan bo`lamiz. Endilikda, bir inson minglab kilometrlar uzoqdagi boshqa bir inson bilan ancha oson usulda bog`lanish va aloqaga chiqish imkoni bor. To`g`ri, buni aslida internetsiz bilan ham amalga oshirsa bo`lar edi, ammo, internet bizga kengroq imkoniyatlar taqdim etdi. Ya`ni, biz bemalol katta hajmli ma`lumotlarni jo`natish va qabul qilib, video aloqalar qilish, yoki ovozli xabarlar qoldira olamiz.
- Ikkinchidan esa internet sababli ta`lim jarayonlarini yanada samarador va ortiqcha ovoragarchiliklarsiz tashkil etish imkoni paydo bo`ldi. Internet bu sohada “Covid-19” davrida O`zbekistondagi katta islohotlarga ham sabab bo`ldi. Natijada O`zbekistonda ommaviy onlayn darslar va masofaviy ta`lim tushunchalari keng yoyildi, amalda qo`llanilmoqda. Insonlar ko`chaga chiqmasdan ham ta`lim olish jarayonini davom ettirish imkoniga ega bo`ldilar.
- Internet texnik jihatdan o`z raqibi hisoblangan TVni insonlar hayotidan sekin astalik bilan siqib chiqarishda davom etmoqda. Aholining katta qismi TVdan olish mumkin bo`lgan axborotni endi xuddi o`sha manbalarni ijtimoiy tarmoqlardagi

bloglaridan yoki rasmiy websaytlaridan olishi mumkin bo`ldi. Bu odamlarga juda keng qulayliklarni taqdim etdi, jumladan, har qachon, va har qanday vaziyatda, masalan ko`chada ketayotganda, transportda bemalol xabardor bo`lish, qo`shimchasiga, erkin holda o`z fikrlarini bildirish va bu xabarni umumiy mazmunini tahlil qilish, boshqalar bilan muhokama qilish imkoniga ega bo`ldi. Ma`lumotlarga qaraganda, internetga kirishga imkoni bo`lgan inson bir kunda o`rtacha 6 soat vaqtini tarmoqda o`tkazishadi. Agarda o`sha inson 100 yil yashaganda, umrining 25 yili internet bilan o`tishi mumkin bo`lardi.

- 2020 yilda Shimoliy Karolinadagi Elon Universiteti olimlari o`tkazgan tadqiqotga ko`ra, internet inson miyasi faoliyatiga ham ijobiy ta`sirlari o`rganilgan. Olingan natijalarga ko`ra, 4 ta ekspertdan 3 ta internetni inson **aql-zakovatini** bilinarli darajada oshirishini, ekspertlarning 3 dan 2 qismi esa internet insonni **o`qish** va **yozish** qobiliyatlarini kuchaytirishini aniqlashgan. Bu internet mavzusiga asoslangan online so`rovnomada 895 nafar inson qatnashgan bo`lib, ulardan 371 nafari ekspert sifatida tanlangan edi.

- Bundan 100 yillar oldin insoniyat oddiy safarlardan tortib, eng kata sayohatlar davomida xaritalar va boshqa uskunalarni olib yurishga majbur edi. Hozirchi? Hozir oldingizda mobil qurilma va internetga ulanish imkoni bo`lsa bas, Internetdagi **GPS** orqali siz qayerda bo`lishingizdan qat`iy nazar deyarli adashib qolmaysiz. Shunday qilib shunday katta omillar orqali internet hayotimizning muhim qismiga aylanib ulgurdi. Kelajakni esa hozirgi davrdan kelib chiqadigan bo`lsak, internetsiz qurishni iloji ham yo`q. Shuningdek mamlakatimizda ham barcha sohani raqamlilashtirish va internet tizimini o`sha sohalarga olib kirish uchun hozirda katta islohotlar va muhim rejalar tuzilgan. 2030-yilgacha O`zbekistonda ham to`liq raqamlilashgan yirik iqtisodiy mamlakatga aylantirish uchun konsepsiyalar tuzilgan. Bu rejalarini amalga oshirishga dastlabki qadamlar ham qo`yildi. Oqibatda, bu rejada mamlakatda uning rivojiga to`squinlik qiluvchi omillarni yo`q qilish, kuchli raqamli iqtisodiyot va savdo-sotiq, raqamlilashgan va qulay ta`lim tizimi va muhiti vujudga keltirish ko`zda tutilgan.

Xulosa qiladigan bo`lsam, internet bu davrimizning eng yaxshi ixtiolaridan biri. U bizga hatto o`zimiz ham tasavvur qila olmaydigan imkoniyatlarda taqdim etmoqda, kelajakda ham bundan ko`prog`ini bemalol kutsak bo`ladi. Mamlakat miqyosida esa raqamlilashtirish orqali har bir sohaga tarmoq bilan shaffoflikda ishlash imkoni yetib bormoqda. O`z navbatida bu bizga ta`lim, tarbiya, iqtisodiy-texnologik, sanoat sohasida keng yo`llarni ochadi. Ammo, maqola oxirida aytib o`tganimdek, har bir yaxshi yoki yomon narsaning orqa ya`ni yana yaxshi yoki yomon tarafi bo`ladi. Ammo, umumiy vaqt va nafs nazoratiga ega bo`lgan inson uchun bu yomon omillarni yaxshi omillarga aylantirishning har doim imkoni bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. Reuters - "US Internet Survey about how Internet will make us smarter" -**
<<https://www.reuters.com/article/us-internet-survey-idUSTRE61I5CW20100219>>
- 2. Quora -** <<https://quora.com>>
- 3. English Wikipedia - "Arpanet" -** <<https://en.wikipedia.org/wiki/ARPANET>>
- 4. English Wikipedia - "Internet" -** <<https://en.wikipedia.org/wiki/Internet>>
- 5. "Useful Apps in Education that can be found in Android system" -**
<<https://play.google.com/>>
- 6. Bluespan - "20 Interesting facts about the Internet" -**
<<https://bluespan.com/blog/20-interesting-facts-about-the-internet>>
- 7. "Higher Education Standard-Credit system" -**
<<https://www.goodschoolsguide.co.uk/university/europe/bologn-a-process-explained/amp>>
- 8. The Guardian - "Benefits of the Internet" -**
<<https://www.goodschoolsguide.co.uk/university/europe/bologn-a-process-explained/amp>>
- 9. Individual Answers on Reddit about "Internet-Related" questions -**
<<https://reddit.com/>>